

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI QARZ KAPITALI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI

Abdinazarov Samijon Abbos o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*davlat-xususiy
shiriklik, qarz kapitali,
moliyalashtirish, loyiha.*

Maqolada davlat-xususiy shiriklik (DXSh) tushunchasining nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va amaliyotdagi qo'llanilishi keng yoritilgan. DXSh – bu davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik shakli bo'lib, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi muammolarni hal qilishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. DXSh orqali davlat moliyaviy yukini kamaytirgan holda, xususiy sektordan investitsiyalarni jalb etadi, xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga erishadi. Turli olimlar – V.G. Varnavskiy, K.A. Antonova, Ye.A. D'nin, B.E. Sazonov, M.B. Gerrard, U.I. Djumaniyazov va boshqalar tomonidan DXShning turli jihatlarini – institutsional asoslari, risklarni taqsimlash, foydani o'zaro ta'minlash, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishdagi roli haqida konseptual yondashuvlar bayon etilgan. Xalqaro tashkilotlar – OECD, Jahon banki, Xalqaro Valyuta jamg'armasi tomonidan DXShning samarali boshqaruvi, loyihalarni tayyorlash sifati va risklarni boshqarish bo'yicha yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Davlat-xususiy shiriklik (DXSh) bugungi kunga kelib muhokama markazidagi mavzulardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy

ahamiyatga molik muammolar DXSh mexanizmidan foydalangan xolda samarali hal etilmoqda. Bugungi kunda bu borada jahondagi rivojlangan va ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar yetarlicha tajribaga ega. Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida DXSh bo'yicha faoliyat olib borayotgan olim va amaliyotchi mutaxassislarning fikricha, DXSh mexanizmi davlat va xususiy sektor hamkorligi natijasida turli iqtisodiy-ijtimoiy muammolar o'z yechimini topmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi – davlat infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdagi xususiy investor jalb qilish usullaridan biri bo'lib, ushbu mexanizmida byudjeti sarfini kamaytirib, davlat va xususiy sherik hisoblangan tomonlar kelishilgan bitim bo'yicha loyihani amalga oshiradi. Bu orqali nafaqat infratuzilma ob'ektini barpo etishda shartnoma tomonlari sheriklik qiladi, balki uni keyinchalik foydalanish hamda boshqa huquqlarda ham o'zaro hamkorlikni davom ettirishni maqsad qiladi (<https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/graphics>).

DXSh loyihalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash, DXSh mexanizmi orqali investitsiya loyihalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ushbu loyihalarni davlatning xizmat ko'rsatish sohalariga ham tadbqiq etish imkoniyatlarini o'z ilmiytadqiqotlarida o'rgangan olimlardan V.G.Varnavskiyning fikricha, “Davlat- xususiy sheriklik loyihalari davlat uchun strategik ahamiyatga yaqin, ammo undan keyingi darajadagi loyihalarga investitsiyalarni jalb etish uchun mexanizm hisoblanadi. Ushbu mexanizmida davlat asosiy ijtimoiy foyda evaziga va kelgusidagi yirik xarajatni oldini olish va uning bir qismini xususiy sektorga uning manfaatlar evaziga yuklashga qaratilgan samarali loyihaviy boshqaruv tizim hisoblanadi” (Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo: teoriya i praktika [Tekst] / V. G. Varnavskiy i dr.; Gos. un-t – Vyysshaya shkola ekonomiki. – M.: Izd. dom Gos. un-ta – Vyysshey shkoliy ekonomiki, 2010. — 287 s.).

K.A.Antonova “Davlat-xususiy sherikchiligi Rossiya ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishining omili sifatida” ilmiy asarida DXSh loyihalari mexanizmini davlat va xususiy sektor o'rtasida davlat boshqaruvi organlar (tashkilotlari, muassasalari va x.k.) va xususiy sektor vakillari o'rtasida amalga oshiriladigan shartnomalarning institutsional tashkiliy ko'rinishi – yaxlit mexanizm” sifatida ta'riflagan (Kabashkin V.A. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo v regionax Rossiyskoy Federatsii: uchebnoe posobie / Kabashkin V. A. — M.: Delo, 2010. S.120.).

Ye.A.Dym'in tomonidan ilgari surilgan mulohazalarga ko'ra, “DXSh loyihalari va uni boshqaruvi mexanizmi jamiyatda zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni tashkil etish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasini o'rta va uzoq muddatga hamda ayni vaqtda ikki tomonlama

manfaatli asosda bo'ladigan davlat va xususiy sektor – jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi tuzilma. Ushbu tuzilma orqali loyihalarni boshqarish esa davlat va xususiy soha egalarini o'zaro hamkorlikda va tiyib turish tamoyillari orqali ikki tomonlama boshqaruv tuzilmasidir” (Дымин Ye.A. Riski biznesa v chastno-gosudarstvennom partnerstve / Дымин Ye. A. // Общество и экономика. - 2007. - № 5-6. - s. 111.) degan fikrlarni bildirgan.

DXSh loyihalari va ularni boshqarish mexanizmi borasida qator xalqaro moliya tashkilotlari va institutlari ham o'zlarining fikr- mulohazalarini bildirishgan. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD - Organisation for Economic Co-operation and Development) “DXSh mexanizmi – davlat sektori tomonidan huqumat hamdabir guruh bo'lgan (bir yoki bir nechta xususiy sektor vakillari) xususiy soha subyektlari - sheriklarning manfaatlar birlashuvi evaziga tuzilgan yaxlit ikki va ko'p tomonlama o'zaro kelishuvi hisoblanadi. Unga ko'ra, o'zaro kelishuv tuzgan sheriklar xizmatlarni (moddiy va nomoddiy resusrlar) o'zaro kelishuvga asosan shunday ta'minlaydiki, ushbu mexanizmدا kerak tomon, ya'ni bir tomondan davlat o'zi tomonidan ko'rsatiladigan va bajaradigan xizmatlarni vaqtida va sifatli taqdim etishi, o'z navbatida ikkinchi tomon – xususiy sektor, ya'ni investorlarning moddiy foyda olish motivlari ta'minlangan ikki tomonning maqsadlari birlashadi. Boshqaruv sohasining murakkabligi esa DXSh loyihalari risklarining o'zaro taqsimlanishi va ularni bartaraf etish imkoniyatlarining mavjudligidadir (Dedicated Public - Private Partnership Units: A Survey of Institutional and Governance Structures, OECD, 2010). DXSh boshqaruv organlari bular, DXSh kelishuvlarini yaratish, saqlash va baholash jarayonida hukumatga yordam berish ustuvor vazifasi etib belgilangan tashkilotlar hisoblanadi. DXSh loyihalarini boshqaruv organining funksiyalariga davlat-xususiy sheriklik asosida chora tadbirlarini belgilash, investitsiya loyihalar ustida ishlash, bu borada normativ - huquqiy xujjatlar tayyorlash, loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, belgilangan investitsiya loyihalar ustida nazorat va monitoring olib borish kabilar shular jumlasidandir (Dmitrieva E.O., Guseva M.S. Centry razvitija gosudarstvenno-chastnogo partnerstva: analiz mezhdunarodnoj praktiki sozdaniya i razvitija // Internet-zhurnal «NAUKOVEDENIE» Tom 8, №6 (2016) <http://naukovedenie.ru/PDF/39EVN616.pdf>).

Xalqaro Valyuta jamg'armasi tomonidan berilgan ta'rifda esa “DXSh – davlat tomonidan an'anaviy tarzda ta'minlanadigan infratuzilmaviy aktivlar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan taqdim etishga qaratilgan kelishuvdir” deb ta'riflanadi (Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.).

B.E.Sazonov fikricha, mamlakatda ma'muriy islohot va yangi modellarni amalga oshirishda davlat yangicha rollarda harakat qilib, o'z faoliyati mexanizmlarini

takomillashtirish, shu bilan bir qatorda dinamik jamiyatda iqtisodiyotning boshqa subyektlari bilan ta'siri va davlat xizmatlarini taqdim etishning innovatsion usullarini joriy etadi (Cazonov.V.E Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo v Rossii i za rubejom: administrativno-pravovoe issledovanie. Dissertatsiya. Moskva 2013. https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01007944797.pdf). DXSh munosabatlari davlatning iqtisodiyotdagi yangi maqomini belgilab beradi.

M.B Djerrard esa DXSh – bu xususiy kapitalni o'ziga jalb qilishni va ba'zan esa ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish yoki davlat aktivlarini boshqarish uchun davlat kapitalini ham jalb qilishni uyg'unlashtiradi deb ta'kidlaydi (Gerrard M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations?//Finance & Development. 2001. Vol.38.).

Rossiyalik olim V.G. Varnavskiy bildirilgan fikrga ko'ra (Varnavskiy V.G. Upravlenie gosudarstvenno-chastnymi partnerstvami za rubezhom // Voprosy gosudarstvennogo i municipal'nogo upravleniya. 2012. №2. - URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-gosudarstvenno-chastnymi-partnerstvami-za-rubezhom>), jahonda xozirda DXSh loyihalari va uning boshqaruv organlari tarkibi haqida umumiy qabul qilingan yaxlit tushuncha yoki nazariya mavjud emas. Unga ko'ra, DXSh uchun davlat tashkilotlari (agentliklar, bo'limlar, departamentlar), davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar va tijorat faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar ham qatnashishi ko'zda tutildi. Jahon banki tomonidan DXSh mexanizmi borasida quyidagilar ta'riflangan: "Davlat- xususiy sheriklikni amalga oshirish va takomillashtirishda moliyaviy salohiyatiga ega har qanday tashkilot ushbu loyihalarda ishtirok etish va uni boshqarishi mumkin" (Public-Private Partnership Units: Lessons for their Design and Use in Infrastructure. Washington, D.C. World Bank and the Public-Private Infrastructure Advisory Facility (PPIAF), 2007.).

Davlat-xususiy sherikligi loyihalarining ilmiy-nazariy asoslarini o'zining ilmiy asarlarida keng yoritgan olimlar: S.P.Angaeva, S.D.Dagbaeva, G.A.Bornovskiy tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra, qurilish va ta'lim sohalarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan investitsiya loyihalarining risklarni teng taqsimlash, o'zaro manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimasligi kabi tamoyillarga qat'iy rioya etishni nazarda tutadigan davlat va xususiy sektor egalarining investitsiya kelishuv shartnomasi" (Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo [Tekst] : uchebnoe posobie / S. P. Angaeva, S. D-N Dagbaeva ; M-vo obrazovaniya i nauki Rossiyskoy Federatsii, Federalnoe gos. byudjetnoe obrazovatelnoe uchrejenie vyssh. prof. obrazovaniya "Vostochno-Sibirskiy gos. un-t texnologiy i upravleniya" (VSGUTU). - Ulan-Ude : Izd-vo VSGUTU, 2016. - 81, [1] s. : tabl.; 21 sm.; ISBN 978-5-89230-803-8 : 100 ekz.)

hisoblanadi.

Yeskom Ye.R (Yescombe E.R.), Farkerson Ye (Farquharson E.) DXSh siyosati va moliyalashtirish masalalari bo'yicha asosiy tushunchalar, DXSh ning asosiy turlari va modellari, DXSh loyihalari va davlatning bu boradagi harakati kabi masalalarga ahamiyat qaratadi (Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. — Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.).

Richerd Xemming DXSh munosabatlari davlat uchun ham, xususiy sektor uchun ham jozibali ekanligi va bunda davlat infratuzilmani qarz olmasdan moliyalashtira olishi, xususiy sheriklikning boshqaruv imkoniyatlari loyihalarda xarajatlarning tejallishiga olib kelishini ta'kidlaydi (Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006).

U.I. Djumaniyazov o'zining tadqiqot ishida DXSh asosida korporativ boshqaruvni tashkil etish iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning yirik korporativ korxonalari bilan erkin raqobat qilishlariga zamin tayyorlashi hamda davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirishi va bosimni kamaytirishi, korporativ tuzilmalarning ijtimoiy faolligini oshirishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining shiddat bilan rivojlanishi uchun zarur bo'lgan texnika texnologiyalarni, ishchi kuchi va investitsiya mablag'larini jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishini ta'kidlagan (Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, mayiyun, 2017 yil № 3, www.iqtisodiyot.uz).

Infratuzilma loyihalarini DXSh mexanizmi asosida moliyalashtirish borasida ilmiy-tadqiqot ishini olib borgan S.B.Yunusovaga ko'ra, "DXSh – bu davlat tomonidan iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirish, turini ko'paytirish, ushbu xizmatlar uchun ajratiladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini optimallashtirish maqsadida infratuzilma ob'ektlariga xususiy sektor (yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs va yuridik shaxslar birlashmasi)ni jalb qilish orqali tomonlarning ma'lum muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan hamkorlikdagi faoliyatidir (Yunusova S.B. Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent shahri – 2022 yil.)".

A.E. Shayxov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda respublikamizda DXSh mexanizmi bo'yicha loyihalarining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlari ham aks ettirilgan (Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X.. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. – Toshkent.: Baktria press, 2015. – 71 b.).

Erk Ozbelge, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat - xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish departamenti tijorat maslahatchisi: "Muvaffaqiyatli DXSh muayyan standartlarni bajarishni talab qiladi" DXShning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning loyihasini sifatli tayyorlash bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, DXSh loyihasini tayyorlash, sifatli yuqori investitsiyalar ehtimolini oshiradi, xususiy sherik davlatdan kamroq mablag'lar talab qiladi, albatta bunday sharoitda banklar raqobat bardosh kreditlarni taklif qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum/ N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini

rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana, 2024. – 7-10 b.

12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.

15. Publis Finance: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning

16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.

